



**O'QUVCHILARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI
SHAKLLANTIRISHNING USULLARI**

Murodova Nigora Xayriddin qizi

*O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti,
Ingliz filologiyasi fakulteti,
1-kurs talabasi*

Z.X.Bannopova

*O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti,
Ingliz filologiyasi fakulteti katta o'qituvchisi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15178816>

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatimizda yosh avlodni g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish usullari, shuningdek, bu boradagi muammolar va ularni hal etish bo'yicha fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mutolaa, kitobxonlik madaniyati, oilaviy mutolaa, madaniy xulq-atvor hamda nutq, savodxonlik.

Аннотация: В данной статье представлены методы формирования и развития культуры чтения, что важно для идейного и мировоззренческого развития молодого поколения в нашем обществе, а также взгляды на проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: Чтение, культура чтения, семейное чтение, культурное поведение и речь, грамотность.

Abstract: This article presents methods of formation and development of reading culture, which is important for the ideological and ideological development of the young generation in our society, as well as opinions on problems and their solutions.

Key words: Reading, reading culture, family reading, cultural behavior and speech, literacy.

KIRISH. Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondashuv turli davrlarda turlicha bo'lgan. Har bir davrning o'z ehtiyojidan kelib chiqqan holda kitobxonlik darajasi belgilangan. Biroq, keyingi davrlardan buyon bu holat davlatimizning asosiy tayanch ustuni bo'lib ulgurdi. Ayniqsa, XXI asr "Raqamli texnologiyalar asri" bo'lganligi sababli kitobxonlik barcha sohalarni keng miqyosda qamram oldi. Binobarin, har bir rivojlanib borayotgan mamlakatning kuch-qudrati o'z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bu o'rinda kitobxonlikning o'rni alohida ekanligi yaqqol ko'rinib turadi. Bugungi kunda, "Mutolaa", "Kitobxonlik madaniyati", "Savodxonlik" kabi atamalar bilan qo'llanib kelinayotgan bir qancha



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ijtimoiy hodisalar kitobxonlik madaniyati sifatida bir qator ilmiy izlanishlarni olib bormoqda.

ASOSIY QISM. “Mutolaa” soʻzi arabcha “oʻqish” degan maʼnoga ega boʻlsa-da, bugungi kunda u kitob oʻqishdan ham kengroq maʼnoni anglatmoqda. Ayni paytda, jadal rivojlanib borayotgan mamlakatimizning taʼlim tizimi sohasida oʻsib borayotgan yosh avlodga zamonaviy taʼlim va tarbiya berish borasida anchagina samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Savodxonlik” bu mamlakat aholisining madaniy saviyasini, uning adabiy til meyorlariga mos keladigan yozma hamda ogʻzaki nutq malakalariga ega ekanligini koʻrsatadi. “Kitobxonlik madaniyati” esa yoshlarga taʼlim – tarbiya berish, ular orasida kitobxonlik ishlarini keng qamrovda olib borish bilan birga, ularni turli tahdid va tajovuzlarga qarshi ulgʻaytirish, dunyoqarashi hamda fikrlash salohiyatini kengaytirish va eng asosiysi, ularni oʻziga ishongan, masʼuliyatli hamda ilmi shaxs etib tarbiyalashdir. Bu kabi masʼuliyatli vazifalarni amalga oshirishda yoshlar ongini va qalbini kelajakka boʻlgan ishonch his-tuygʻulari bilan toʻldirish, ajdodlarimizning bizgacha qoldirgan barcha merosining muhimligini yanada chuqurroq oʻrgatish kerak boʻladi.

Aynan manashu paytda oilaviy mutolaa hamda kitobxonlik madaniyatining oʻrni benihoya kattadir. Jumladan, xalqimiz turmush tarzidan maʼlumki, ajdodlarimiz farzand tarbiyasida kitob mutolaa qilishni birinchi oʻringa qoʻyishgan. Buyuk Navoiy-u Bobur, Amir Temir-u Ulugʻbek kabi allomalarimizning oilaviy muhiti faqat kitob oʻqish, undan koʻ proq maʼlumot olishga harakat qilishdan iborat boʻlgan. Bundan tashqari, mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini oshirish maqsadida turli xil ishlar amalga oshirilgan.

Aytish joizki, 2017-2021-yillarda Oʻzbekistonni rivojlantirish boʻyicha beshta ustuvor yoʻnalish “Harakatlar strategiyasi” amalga oshirilgan va bular orasida kitobxonlikka katta eʼtibor berilgan. Oʻsha paytda bir qancha tanlovlar, masalan “Yosh kitobxon” koʻrik-tanlovlari barcha hududlar kesimida keng miqyosda oʻtkazilgan. Unda oʻquvchilar nafaqat oʻzlari yolgʻiz holda, balki oilalari bilan birga ham faol ishtirok etganlar hamda maxsus qimmatbaho sovgʻalar bilan taqdirlanganlar.

Bundan tashqari, yoshlarda kitobxonlik salohiyatini rivojlantirish uchun, eng avvalo, bir qancha ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

•Maktab taʼlimining boshlangʻich bosqichida badiiy matnni oʻqish madaniyatini shakllantirish va uning uslubiy shart-sharoitlarini aniqlash;



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

- Maxsus diagnostik testlar o'tkazish orqali o'quvchilarning bilim salohiyatini aniqlash hamda alohida guruhlariga ajratish;

- Har bir guruhdagi o'quvchilarning o'zlashtira olish qobiliyatiga ko'ra mos bo'lgan kitoblar ro'yxatini tuzish;

- Kichik yoshdagi o'quvchilar orasida qiziqarli diagnostik testlar o'tkazish orqali ularning bilim salohiyatini aniqlash, o'qish tezligini rivojlantirish va uzluksiz monitoring tizimini shakllantirish bilan birga ularda bo'layotgan bir qancha muammolarga yechim berish;

XULOSA. Demak, kitobxonlik o'quvchini yuksaklikka yetaklaydi, mamlakat rivojlanib boravergani sayin uning kitobxonlikka ehtiyoji ortaveradi. Shunday ekan, biz bu sohaga e'tiborni yanada kuchaytirishimiz va eng avvalo uni oiladan, bog'chadan, maktabdan tatbiq etishni boshlashimiz kerak. Bir so'z bilan aytganda, o'tmish, bugun va kelajak kitoblarda mujassamlashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. <https://ojs.nordicun.uz/index.php/nordic/article/download/1256/934/4244>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/kitobxonlik-madaniyatini-shakllantirish-davr-talabi>
3. https://www.researchgate.net/publication/376796340_YOSHLARDA_KITOBXONLIK_MADANIYATINI_RIVOJLANTIRISHNING_ASOSIY_OMILLARI
4. <https://ojs.nordicun.uz/index.php/nordic/article/download/1256/934/4244>